Loyiha

NIZOM
XALQARO XAYRIYA MARAFONINI O‘TKAZISH TO‘G‘RISIDA
“Samarkand Marathon” 2027

MUNDARIJA:

1. UMUMIY QOIDALAR……. 3
2. TADBIRGA RAHBARLIK QILISH……. 3
3. TADBIRNI TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISH XARAJATLARI……. 3
4. TADBIR SANASI, VAQTI VA O‘TKAZILISH JOYI……. 3
5. MASOFALAR VA VAQT LIMITLARI……... 4
6. ISHTIROKCHILAR VA YOSH TALABLARI…… 4
7. RO‘YXATDAN O‘TISH VA START BADALLARI……... 5
8. ELITE START KLASTERIGA SARALASH……... 6
9. START TO‘PLAMLARINI BERISH…… 7
10. TADBIR DASTURI……... 8
11. MUSOBAQAGA QO‘YILISH TALABLARI…….. 8
12. YUK SAQLASH XIZMATI…….. 8
13. VAQTNI HISOBLASH, NATIJALAR VA G‘OLIBLARNI ANIQLASH…….. 8
14. TAQDIRLASH, YOSH GURUHLARI VA MAXSUS TOIFALAR…… 10
15. MARAFON (42 km 195 m) MUKOFOT JAMG‘ARMASI VA PUL MUKOFOTLARINI TO‘LASH TARTIBI……...……. 12
16. ANTIDOPING NAZORATI…….. 12
17. YARIM MARAFON (21 km 97,5 m) VA 10 KM MUKOFOT JAMG‘ARMALARI…….. 12
18. TRASSADA O‘ZINI TUTISH QOIDALARI……... 12
19. DISKVALIFIKATSIYA…… 12
20. MUSOBAQADA HAKAMLIK QILISH…….. 13
21. MUSOBAQA HAKAMLAR HAY’ATI……... 13
22. FORS-MAJOR HOLATLAR…… 13
23. PROTEST VA APELLYATSIYALAR……. 14
24. YAKUNIY QOIDALAR……... 15

1. UMUMIY QOIDALAR

«Samarkand Marathon» 2027 xalqaro xayriya yugurish tadbiri (keyingi o‘rinlarda – «Musobaqa» yoki «Tadbir») O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi PQ-5282-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-maydagi 277-son qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek O‘zbekiston Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasining 2027-yil uchun tasdiqlangan Kalendar rejasiga muvofiq quyidagi maqsadlarda o‘tkaziladi:

- madaniyat va san’at obyektlaridagi inklyuzivlik muammolariga jamoatchilik e’tiborini qaratish;
- sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish;
- sport turizmini rivojlantirish;
- O‘zbekiston aholisi, jumladan yosh avlodni muntazam jismoniy faollik va sport bilan shug‘ullanishga jalb etish.

2. TADBIRGA RAHBARLIK QILISH

2.1. Tashkilotchi: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda «Jamg‘arma»).

2.2. Tadbir quyidagi tashkilotlar ko‘magida o‘tkaziladi:

- O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi;
- O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligi;
- Samarqand viloyati hokimligi.

2.3. Tashkilotchi hamda Tadbir tashkiliy qo‘mitasi (keyingi o‘rinlarda «Tashkiliy qo‘mita») o‘rtasidagi huquq va majburiyatlar taqsimoti O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisi bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

2.4. Tadbirni bevosita tashkil etish va o‘tkazish Tashkiliy qo‘mita hamda Musobaqa hakamlar hay’ati zimmasiga yuklanadi.

3. TADBIRNI TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISH XARAJATLARI

3.1. Tadbir xarajatlari quyidagi manbalar hisobidan qoplanadi:

- Jamg‘arma mablag‘lari;
- jismoniy va yuridik shaxslarning xayriya badallari;
- qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar.

3.2. Tadbirda qatnashish bilan bog‘liq yo‘l, yashash va ovqatlanish xarajatlari ishtirokchilarning o‘zi yoki ularni yuborgan tashkilotlar tomonidan qoplanadi.

4. TADBIR SANASI, VAQTI VA O‘TKAZILISH JOYI

4.1. Tadbir sanalari va vaqti:

- 4.1.1. 2027-yil 12-noyabr;
- 4.1.2. 2027-yil 13-noyabr;
- 4.1.3. 2027-yil 14-noyabr.

4.2. O‘tkazilish joyi: O‘zbekiston Respublikasi, Samarqand shahri.

4.3. Barcha masofalarning start va marra manzili: Samarqand shahri, Registon ko‘chasi, mo‘ljal – Registon maydoni.

5. MASOFALAR VA VAQT LIMITLARI

5.1. Tadbir dasturiga quyidagi masofalar kiritilgan:

– Marafon – 42 km 195 m;
– Yarim marafon – 21 km 97,5 m;
– 10 km yugurish;
– 5 km yugurish va 5 km Inclusive;
– 2 km yugurish;
– 2 km NW (skandinavcha yurish);
– KIDS RUN 1000 – 1 000 m;
– KIDS RUN 600 – 600 m;
– KIDS RUN 300 – 300 m;
– KIDS RUN 60 va KIDS RUN 60 Inclusive – 60 m.

5.2. Masofalarni bosib o‘tish uchun vaqt limitlari:

– Marafon – 6 soat;
– Yarim marafon – 3 soat;
– 10 km – 1 soat 40 daqiqa;
– 5 km va 5 km Inclusive – 50 daqiqa;
– 2 km – 20 daqiqa;
– 2 km NW (skandinavcha yurish) – 30 daqiqa;
– KIDS RUN – vaqt limiti belgilanmagan.

6. ISHTIROKCHILAR VA YOSH TALABLARI

6.1. Masofalar bo‘yicha yosh talablari:

– Marafon – 18 yosh va undan kattalar;
– Yarim marafon – 18 yosh va undan kattalar;
– 10 km – 16 yosh va undan kattalar;
– 5 km va 5 km Inclusive – 12 yosh va undan kattalar;
– 2 km – 12 yosh va undan kattalar;
– 2 km NW – 12 yosh va undan kattalar;
– KIDS RUN 1000 – 9-11 yosh;
– KIDS RUN 600 – 7-8 yosh;
– KIDS RUN 300 – 5-6 yosh;
– KIDS RUN 60 – 3-4 yosh;
– KIDS RUN 60 Inclusive – 3-18 yosh.

6.2. Ishtirokchi turli kunlarda o‘tkaziladigan bir nechta masofada qatnashishi mumkin.

6.3. Ishtirokchining yoshi Tadbir kunidagi to‘liq yillar soni bo‘yicha hisoblanadi. Tanlangan masofa uchun belgilangan yosh talablariga javob bermaydigan ishtirokchi startga qo‘yilmaydi, to‘langan badal esa qaytarilmaydi.

6.4. Musobaqada quyidagilar qatnashishi mumkin:

– professional sportchilar va havaskor yuguruvchilar;
– tegishli masofalar uchun belgilangan yosh guruhlaridagi ishtirokchilar;
– nogironligi bo‘lgan ishtirokchilar.

6.5. Musobaqada qatnashish uchun events.samarkandmarathon.uz, reg.russiarunning.com, worldsmarathons.com yoki ahotu.com saytlaridan birida ro‘yxatdan o‘tish va start badalini to‘lash kerak.

6.6. Ishtirokchi quyidagilarga majbur:

– yuqorida ko‘rsatilgan saytlardan birida ro‘yxatdan o‘tish;
– haqiqiy va dolzarb shaxsiy ma’lumotlarni taqdim etish;
– ushbu Nizomdagi Tadbir qoidalariga rioya qilish.

7. RO‘YXATDAN O‘TISH VA START BADALLARI

7.1. Ishtirokchilarni ro‘yxatdan o‘tkazish bosqichma-bosqich samarkandmarathon.uz, reg.russiarunning.com, worldsmarathons.com, ahotu.com saytlarida amalga oshiriladi va 2027-yil 5-noyabrda yoki ishtirokchilar soni quyidagi limitlarga yetganda yakunlanadi:

– marafon – 1500 ishtirokchi;
– yarim marafon – 2500 ishtirokchi;
– 10 km masofaga yugurish – 4500 ishtirokchi;
– 5 km masofaga yugurish, 5 km Inclusive – 4500 ishtirokchi;
– 2 km masofaga yugurish – 1210 ishtirokchi;
– 2 km NW (skandinavcha yurish) – 200 nafar ishtirokchi;
– KIDS RUN 1000 – 200 nafar ishtirokchi;
– KIDS RUN 600 – 160 nafar ishtirokchi;
– KIDS RUN 300 – 120 nafar ishtirokchi;
– KIDS RUN 60 – 80 ishtirokchi;
– KIDS RUN 60 Inclusive – 30 ishtirokchi.

7.2. Birinchi bosqichda marafon masofasiga (42 km 195 m) ro‘yxatdan o‘tish ochiladi va yarim marafon (21 km 97,5 m). Tadbirning qolgan masofalari uchun ro‘yxatdan o‘tish keyinroq boshlanadi.

7.3. Korporativ ro‘yxatdan o‘tish. Arizalar t.me/sm_corpo Telegram manzili yoki marathon@acdf.uz elektron pochtasi orqali qabul qilinadi. Ro‘yxatdan o‘tish 2027-yil 4-noyabrda yoki ajratilgan joylar to‘lganda yakunlanadi.

Korporativ ro‘yxatdan o‘tish shartlari:

– bitta tashkilotdan ishtirokchilar soni kamida 10 nafar bo‘lishi kerak;
– 10 nafardan kam ishtirokchi bo‘lsa, ular mustaqil ro‘yxatdan o‘tadi.

Korporativ ishtirok uchun tashkilot shartnoma asosida Tashkiliy qo‘mita hisob raqamiga pul o‘tkazadi. Ro‘yxatdan o‘tish ariza va maxsus shaklni to‘ldirish asosida amalga oshiriladi.

7.4. Quyidagi shartlar bajarilganda shaxs ro‘yxatdan o‘tgan hisoblanadi:

– muayyan masofaga ro‘yxatdan o‘tgan;
– start badalini to‘lagan;
– shaxsiy start raqamini olgan.

7.5. Ro‘yxatdan o‘tish va badalni to‘lash bilan ishtirokchi ushbu Nizomning barcha shartlariga roziligini tasdiqlaydi. Ishtirokchi Musobaqa qoidalari bilan tanishgani, majburiyatlari va javobgarligini tushunganini hamda Tashkiliy qo‘mita talablariga amal qilishini tasdiqlaydi.

7.6. Boshlang‘ich badallar qiymati:

7.6.1. Birinchi bosqichda (2027-yil 1-yanvargacha):

– marafon – 350.000 (uch yuz ellik ming) so‘m;
– yarim marafon – 300.000 (uch yuz ming) so‘m.

7.6.2. Ikkinchi bosqichda (2027-yil 1-yanvardan boshlab):

– marafon – narxi keyinroq e’lon qilinadi;
– yarim marafon – narxi keyinroq e’lon qilinadi;
– 10 km masofaga yugurish – narxi keyinroq e’lon qilinadi;
– 5 km masofaga yugurish – narxi keyinroq e’lon qilinadi;
– 5 km Inclusive yugurish – 0 (nol) so‘m (Nizomning 7.9-bandiga qarang);
– 2 km masofaga yugurish – narxi keyinroq e’lon qilinadi;
– 2 km NW (skandinavcha yurish) - narxi keyinroq e’lon qilinadi;
– KIDS RUN 1000 – narxi keyinroq e’lon qilinadi;
– KIDS RUN 600 – narxi keyinroq e’lon qilinadi;
– KIDS RUN 300 – narxi keyinroq e’lon qilinadi;
– KIDS RUN 60 – narxi keyinroq e’lon qilinadi;
– KIDS RUN 60 Inclusive – 0 (nol) so‘m (Nizomning 7.9-bandiga qarang).

7.7. Masofani o‘zgartirish. Masofani faqat 2027-yil 24-oktabrgacha o‘zgartirish mumkin. Xizmat narxi – 50 000 so‘m (ellik ming). Qisqaroq masofadan uzunrog‘iga o‘tilsa, narxlar farqi to‘lanadi. Uzunroq masofadan qisqaroqqa o‘tilsa, farq qaytarilmaydi. O‘zgartirish faqat yosh talablari bajarilganda va tanlangan masofada bo‘sh joylar mavjud bo‘lsa mumkin. Avvalgi start raqami bekor qilinib, yangisi beriladi. Murojaat uchun: t.me/samarkandmarathon_support yoki marathon@acdf.uz.

7.8. To‘lovni qaytarish. Start badali faqat ro‘yxatdan o‘tgan va Tadbirdan oldin homiladorligini bilgan ayollarga qaytariladi. Qaytarish xizmati bepul. Buning uchun t.me/samarkandmarathon_support yoki marathon@acdf.uz orqali murojaat qilib, homiladorlikni tasdiqlovchi hujjat yuborish kerak. Boshqa hollarda badal qaytarilmaydi.

7.9. Nogironligi bo‘lgan ishtirokchilar uchun bepul joylar. Bepul qatnashish uchun 2027-yil 5-noyabrgacha t.me/samarkandmarathon_support yoki marathon@acdf.uz manziliga ariza yuborish kerak.

Arizada quyidagilar bo‘lishi kerak:

– ishtirokchining familiyasi, ismi va otasining ismi;
– nogironlikni tasdiqlovchi hujjatlar;
– tanlangan masofa.

Bepul joylar soni cheklangan. Barcha bepul joylar band bo‘lsa, Tashkiliy qo‘mita arizani rad etishi mumkin.

8. ELITE START KLASTERIGA SARALASH

8.1. Elite – saralash natijasi oldindan tasdiqlangan yuguruvchilar uchun alohida start klasteri.

8.2. Marafon (42 km 195 m) va yarim marafon (21 km 97,5 m) masofalarida Elite klasteriga ariza berishdan oldin events.samarkandmarathon.uz, reg.russiarunning.com, worldsmarathons.com yoki ahotu.com saytida ro‘yxatdan o‘tish kerak.

8.3. Elite klasteriga saralanish uchun 2027-yil 29-oktabrgacha ro‘yxatdan o‘tib, belgilangan saralash vaqtini tasdiqlovchi natijalarni t.me/samarkandmarathon_support orqali yuborish lozim. Musobaqadan oldingi ikki yil davomida mos masofadagi musobaqalarda qayd etilgan natijalar hisobga olinadi. Ariza ko‘rib chiqilgach, Elite klasteriga qabul qilinganlik yoki rad etilganlik haqida elektron pochta orqali xabar beriladi.

8.4. Mobil ilovadagi mashg‘ulot yozuvi saralash vaqtini tasdiqlovchi hujjat sifatida qabul qilinmaydi.

8.5. Saralash vaqtlari:

8.5.1. Marafon:

– erkaklar – 2:42:00 gacha;
– ayollar – 3:08:00 gacha.

8.5.2. Yarim marafon:

– erkaklar – 1:16:00 gacha;
– ayollar – 1:29:00 gacha.

9. START TO‘PLAMLARINI BERISH

9.1. Start to‘plamlari 2027-yil 12-13-noyabr kunlari 10:00 – 20:00 da Samarqand shahridagi «Olimpiya» stadionida beriladi.

Boshqa kunlarda start to‘plamlari berilmaydi.

9.2. Start to‘plami tarkibi:

– vaqtni qayd etuvchi chip o‘rnatilgan start raqami;
– futbolka;
– ryukzak.

9.3. Start to‘plamini olish uchun quyidagi hujjatlar talab etiladi:

9.3.1. Shaxsan olishda:

– shaxsni tasdiqlovchi hujjat (asl nusxasi yoki elektron shakli);
– ishtirok paytida hayot va sog‘liqqa yetishi mumkin bo‘lgan zarar uchun Tashkilotchining javobgarligidan ozod etish haqidagi to‘ldirilgan tilxatning asl nusxasi (shakl events.samarkandmarathon.uz saytida berilgan).

9.3.2. Vakil orqali olishda:

– vakilning shaxsini tasdiqlovchi hujjati (asl nusxasi yoki elektron shakli);
– ishtirokchining shaxsi va yoshini tasdiqlovchi hujjat nusxasi;
– vakil orqali to‘plamni olish uchun to‘ldirilgan, Tashkilotchini ishtirokchining hayoti va sog‘lig‘iga mumkin bo‘lgan zarar uchun javobgarlikdan ozod etuvchi tilxatning asl nusxasi (shakl events.samarkandmarathon.uz saytida).

9.4. Voyaga yetmagan ishtirokchilar. 18 yoshga to‘lmaganlar qonuniy vakil yoki guruh rahbari hamrohligida qatnashishi mumkin. Ishtirok etishga ruxsat va start to‘plamini olish uchun qonuniy vakil quyidagilarni taqdim etishi shart:

– voyaga yetmagan shaxsning qonuniy vakili ekanini tasdiqlovchi hujjat;
– ota-onaning to‘ldirilgan rozilik xati asl nusxasi (shakl events.samarkandmarathon.uz saytida).

Vakolatni tasdiqlovchi hujjatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

– bolaning tug‘ilishi FHDYO tomonidan qayd etilganligi belgisi mavjud ota-ona shaxsni tasdiqlovchi hujjat (asl yoki elektron);
– bunday belgi bo‘lmasa, ota-ona ID hujjati va bolaning tug‘ilganlik guvohnomasi;
– vasiylikni tasdiqlovchi hujjat bilan birga vasiyning ID hujjati;
– voyaga yetmagan ishtirokchining qonuniy vakili vakolatini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar.

9.5. Korporativ ishtirokchilar start to‘plamlarini 9.1-bandda belgilangan vaqtda olishi mumkin. Buning uchun:

– vakilning shaxsini tasdiqlovchi hujjat (asl yoki elektron);
– ishtirokchining shaxsi va yoshini tasdiqlovchi hujjat nusxasi;

– vakil orqali to‘plam olish uchun to‘ldirilgan tegishli tilxatning asl nusxasi (unda ishtirokchi Tadbirda qatnashish davomida hayoti va sog‘lig‘iga yetishi mumkin bo‘lgan zarar uchun Tashkilotchini javobgarlikdan ozod etadi; shakl events.samarkandmarathon.uz saytida joylashtirilgan) taqdim etiladi.

9.6. Bir kishi ko‘pi bilan 10 ta (o‘nta) start to‘plamini olishi mumkin.

10. TADBIR DASTURI *(keyinroq e’lon qilinadi)*

11. MUSOBAQAGA QO‘YILISH TALABLARI

11.1. Ishtirokchining start raqami ko‘kragiga yoki yugurish kamariga aniq ko‘rinadigan qilib mahkamlanishi kerak.

11.2. Start raqami bo‘lmagan ishtirokchilar Musobaqaga qo‘yilmaydi.

11.3. 2 km NW (skandinavcha yurish). Ishtirokchi shaxsiy skandinavcha yurish tayoqchalariga ega bo‘lishi va masofani ular yordamida bosib o‘tishi shart. Yugurish (oyoqlarning bir vaqtning o‘zida yerdan uzilishi), sakrash, chang‘i yurishini taqlid qilish va tizzalarni yarim bukib yurish taqiqlanadi. Tashkilotchi tayoqchalarni taqdim etmaydi.

11.4. Bola bilan yugurish aravachasida qatnashish talablari:

– aravachada hamrohning bilagiga mahkamlanadigan xavfsizlik tasmasi bo‘lishi kerak;
– g‘ildiraklar havo bilan shishiriladigan bo‘lishi kerak;
– bola xavfsizlik kamarlari bilan mahkam bog‘langan bo‘lishi kerak;
– old g‘ildiraklar qotirilgan holatda bo‘lishi kerak.

12. YUK SAQLASH XIZMATI

12.1. Buyumlarni start to‘plamida berilgan ryukzakda yuk saqlash joyiga topshirish tavsiya etiladi.

12.2. Chamadonlar va katta hajmli sumkalar qabul qilinmaydi.

12.3. Qimmatbaho buyumlar, naqd pul va taqinchoqlarni yuk saqlash joyiga topshirmaslik qat’iyan tavsiya etiladi.

12.4. Tashkilotchi ishtirokchi ryukzagi ichidagi buyumlar saqlanishi uchun javobgar emas.

12.5. Ryukzak ichidan buyum yo‘qolgani haqidagi da’volar Tashkiliy qo‘mita tomonidan ko‘rib chiqilmaydi.

13. VAQTNI HISOBLASH, NATIJALAR VA G‘OLIBLARNI ANIQLASH

G‘oliblar va sovrindorlar World Athletics qoidalariga muvofiq aniqlanadi. Natijalar elektron vaqt o‘lchash tizimi orqali qayd etiladi va Musobaqa hakamlar hay’ati tomonidan tasdiqlanadi.

13.1. Marafon (42 km 195 m), yarim marafon (21 km 97,5 m), 10 km, 5 km va 2 km masofalarida g‘olib hamda sovrindorlar GUN TIME asosida aniqlanadi.

13.2. 5 km Inclusive masofasida g‘olib va sovrindorlar CHIP TIME asosida aniqlanadi.

13.3. 2 km NW hamda KIDS RUN 60 Inclusive, 60, 300, 600 va 1000 masofalaridagi natijalar GUN TIME asosida qayd etiladi.

13.4. Rasmiy natijalar events.samarkandmarathon.uz saytida e’lon qilinadi.

13.5. Natija qayd etilishi uchun start raqami ko‘krakka yoki yugurish kamariga to‘g‘ri mahkamlangan bo‘lishi kerak.

13.6. Quyidagi holatlarda Tashkiliy qo‘mita shaxsiy natija qayd etilishini kafolatlamaydi:

– chipli start raqami noto‘g‘ri taqilgan bo‘lsa;

– chipli raqam kiyim bilan yopilgan yoki boshqa usulda berkitilgan bo‘lsa;
– chip magnitsizlangan bo‘lsa;
– ishtirokchi chipga shikast yetkazgan bo‘lsa.

13.7. Natijalarni tushunish uchun atamalar:
– DNS – Did Not Start: startga chiqmagan ishtirokchi;
– DNF – Did Not Finish: marraga yetib kelmagan ishtirokchi;
– DSQ – Disqualified: diskvalifikatsiya qilingan ishtirokchi;
– CR – Championship Record: musobaqa rekordi;
– GUN TIME: start signali berilgan paytdan ishtirokchi marra vaqt o‘lchash gilamchasini kesib o‘tguniga qadar o‘tgan vaqt;
– CHIP TIME: ishtirokchi start va marra vaqt o‘lchash gilamchalarini kesib o‘tishi orasidagi shaxsiy vaqt.

14. TAQDIRLASH, YOSH GURUHLARI VA MAXSUS TOIFALAR

14.1. Marafon (42 km 195 m)

14.1.1. Taqdirlash tartibi:
– umumiy hisobda erkaklar va ayollar o‘rtasida alohida 1-8-o‘rinlar;
– har bir yosh toifalarida erkaklar va ayollar o‘rtasida 1-o‘rin.

14.1.2. Umumiy hisob g‘olib va sovrindorlariga pul mukofoti sertifikati va kubok beriladi. Umumiy hisobda g‘olib bo‘lganlar yosh toifalarida qayta taqdirlanmaydi.

14.1.3. Yosh toifalaridagi g‘oliblarga diplom beriladi.

14.1.4. Yosh toifalari:
– 18-19;
– 20-24;
– 25-29;
– 30-34;
– 35-39;
– 40-44;
– 45-49;
– 50-54;
– 55-59;
– 60-64;
– 65-69;
– 70-74;
– 75-79;
– 80 yosh va undan katta.

14.2. Yarim marafon (21 km 97,5 m)

14.2.1. Taqdirlash tartibi:
– umumiy hisobda erkaklar va ayollar o‘rtasida alohida 1-3-o‘rinlar;
– har bir yosh toifalarida erkaklar va ayollar o‘rtasida 1-o‘rin.

14.2.2. Umumiy hisob g‘olib va sovrindorlariga pul mukofoti sertifikati va kubok beriladi. Umumiy hisob g‘oliblari yosh toifalarida qayta taqdirlanmaydi.

14.2.3. Yosh toifalaridagi g‘oliblarga diplom beriladi.

14.2.4. Yosh toifalari:
– 18-19;

– 20-24;
– 25-29;
– 30-34;
– 35-39;
– 40-44;
– 45-49;
– 50-54;
– 55-59;
– 60-64;
– 65-69;
– 70-74;
– 75-79;
– 80 yosh va undan katta.

14.3. 10 km yugurish

14.3.1. Taqdirlash tartibi:
– umumiy hisobda erkaklar va ayollar o‘rtasida alohida 1-3-o‘rinlar;
– har bir yosh toifalarida erkaklar va ayollar o‘rtasida 1-o‘rin.

14.3.2. Umumiy hisob g‘olib va sovrindorlariga pul mukofoti sertifikati va kubok beriladi. Umumiy hisob g‘oliblari yosh toifalarida qayta taqdirlanmaydi.

14.3.3. Yosh toifalaridagi g‘oliblarga diplom beriladi.

14.3.4. Yosh toifalari:
– 16–17;
– 18–19;
– 20–24;
– 25–29;
– 30–34;
– 35–39;
– 40–44;
– 45–49;
– 50–54;
– 55–59;
– 60–64;
– 65–69;
– 70–74;
– 75–79;
– 80 yosh va undan katta.

14.4. 5 km yugurish

14.4.1. Taqdirlash tartibi:
– umumiy hisobda erkaklar va ayollar o‘rtasida alohida 1-3-o‘rinlar;
– har bir yosh toifalarida erkaklar va ayollar o‘rtasida 1-o‘rin.

14.4.2. Umumiy hisob g‘olib va sovrindorlariga kubok beriladi. Umumiy hisob g‘oliblari yosh toifalarida qayta taqdirlanmaydi.

14.4.3. Yosh toifalaridagi g‘oliblarga diplom beriladi.

14.4.4. Yosh toifalari:
– 12-13;

– 14-15;
– 16-17;
– 18-19;
– 20-24;
– 25-29;
– 30-34;
– 35-39;
– 40-44;
– 45-49;
– 50-54;
– 55-59;
– 60-64;
– 65-69;
– 70-74;
– 75-79;
– 80 yosh va undan katta.

14.5. 2 km yugurish

14.5.1. Umumiy hisobda erkaklar va ayollar o‘rtasida alohida 1-3-o‘rinlar taqdirlanadi.

14.5.2. Umumiy hisob g‘olib va sovrindorlariga kubok beriladi.

14.6. 2 km NW va KIDS RUN 60 Inclusive, 60, 300, 600, 1000 masofalarida g‘olib va sovrindorlar aniqlanmaydi hamda taqdirlash o‘tkazilmaydi.

14.7. 5 km Inclusive maxsus toifalari

14.7.1. Ko‘rish qobiliyatida nogironligi bo‘lgan ishtirokchilar

14.7.1.1. I guruh (ko‘zi ojiz). I guruh nogironligini tasdiqlovchi hujjat yoki unga tenglashtirilgan milliy yoxud xalqaro T11 sport tasnifi natijasini taqdim etgan ishtirokchi ko‘zi ojiz deb hisoblanadi.

O‘zini ko‘zi ojiz sifatida ro‘yxatdan o‘tkazgan ishtirokchi butun masofani yetaklovchi yuguruvchi hamrohligida bosib o‘tishi shart. Hamrohsiz marraga kelgan yoki masofaning bir qismini hamrohsiz bosib o‘tib, faqat marrada unga qo‘shilgan ishtirokchi diskvalifikatsiya qilinadi.

Taqdirlash: umumiy hisobda erkaklar va ayollar o‘rtasida alohida 1-3-o‘rinlar.

14.7.1.2. II va III guruhlar (zaif ko‘ruvchi). Taqdirlash: umumiy hisobda erkaklar va ayollar o‘rtasida alohida 1-3-o‘rinlar.

14.7.2. Eshitish qobiliyatida nogironligi bo‘lgan ishtirokchilar

14.7.2.1. I guruh (kar). Taqdirlash: umumiy hisobda erkaklar va ayollar o‘rtasida alohida 1-3-o‘rinlar.

14.7.2.2. II va III guruhlar (zaif eshituvchi). Taqdirlash: umumiy hisobda erkaklar va ayollar o‘rtasida alohida 1-3-o‘rinlar.

14.8. 5.2-banddagi belgilangan vaqt limiti ichida marraga yetib kelgan barcha ishtirokchilarga esdalik finishyor medali beriladi.

14.9. Umumiy hisob g‘oliblari va sovrindorlari, shuningdek yosh guruhlari g‘oliblari taqdirlash marosimida pul mukofoti sertifikati, kubok yoki diplomlarini olmagan bo‘lsa, ularni Tadbir yakunlanganidan keyin 5 (besh) ish kuni ichida Toshkent shahri, T. Shevchenko ko‘chasi, 1-uy manzilidagi Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasidan olishlari mumkin. Mukofotlarni olishning aniq joyi va vaqti rasmiy axborot manbalarida e’lon qilinadi.

15. MARAFON (42 km 195 m) MUKOFOT JAMG‘ARMASI VA PUL MUKOFOTLARINI TO‘LASH TARTIBI *(keyinroq e’lon qilinadi)*

16. ANTIDOPING NAZORATI

16.1. Tadbirda antidoping nazorati WADA Jahon antidoping kodeksi, World Athletics antidoping qoidalari, Testlash va surishtiruvlar bo‘yicha xalqaro standart (ISTI) hamda World Athletics Label Road Racesning amaldagi talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

16.2. Tashkiliy qo‘mita vakolatli antidoping tashkiloti, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Milliy antidoping agentligi (UzNADA) bilan hamkorlikda doping nazorati uchun zarur tashkiliy va texnik sharoitlarni ta’minlaydi.

Barcha ishtirokchilar World Athletics va WADAning amaldagi antidoping qoidalariga rioya qilishi shart.

17. YARIM MARAFON (21 km 97,5 m) VA 10 km MUKOFOT JAMG‘ARMALARI *(keyinroq e’lon qilinadi)*

18. TRASSADA O‘ZINI TUTISH QOIDALARI

Musobaqa World Athletics (WA) qoidalari asosida o‘tkaziladi.

18.1. Ishtirokchilarga quyidagilar tavsiya etiladi:

– trassa xaritasi bilan oldindan tanishish;
– ikki nafardan ortiq bo‘lib yonma-yon yugurmaslik;
– piyoda yurishga o‘tganda yo‘lning o‘ng tomonidan harakatlanish.

18.2. Quyidagilar taqiqlanadi:

– har qanday mexanik harakatlanish vositalaridan foydalanish (samokat, velosiped, rolik va boshqalar);
– quloqchin taqib qatnashish; ishtirokchi hakamlar, tashkilotchilar va boshqa yuguruvchilarning ogohlantirishlarini eshita olishi kerak;
– hayvonlar bilan qatnashish;
– spirtli ichimlik yoki giyohvand moddalar ta’siri ostida qatnashish;
– boshqalarga xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan buyumlarni olib yurish;
– trassada to‘xtab qolish; o‘zini yomon his qilganda, imkon qadar boshqa ishtirokchilarga xalal bermagan holda yo‘l chetiga chiqib to‘xtash;
– ishtirokchilar harakati yoki Tadbir faoliyatiga boshqa usullar bilan to‘sqinlik qilish;
– ishtirokchi ovqat yoki ichimlik olayotgan paytda jamoa vakillari yoki boshqa shaxslarning uning yonida yurishi, yugurishi yoki harakatlanishi.

19. DISKVALIFIKATSIYA

19.1. Tashkiliy qo‘mita ishtirokchini quyidagi hollarda diskvalifikatsiya qilishi mumkin:

– rasmiy startdan oldin yugurishni boshlasa;
– startga start raqamisiz chiqsa;
– start hududi yopilganidan keyin yugurishni boshlasa;
– rasmiy ovqatlanish punktidan tashqarida suv yoki oziq-ovqat olsa (hakamlar tomonidan yoki ularning ko‘rsatmasiga asosan tibbiy zarurat tufayli berilgan holatlar bundan mustasno);

– Tashkilotchi, hakamlar yoki ko‘ngillilarga nisbatan qo‘pol, haqoratli yoki odobsiz so‘zlar ishlatsa;
– Tashkiliy qo‘mita, hakamlar yoki Musobaqa bosh shifokori ko‘rsatma va ogohlantirishlariga amal qilmasa;
– Musobaqa qoidalarini buzsa.

19.2. Quyidagi hollarda ishtirokchi yakuniy natijalar bayonnomasidan chiqariladi:
– start hududidan tashqarida yugurishni boshlasa;
– o‘ziga ajratilmagan klasterdan start olsa;
– aynan shu musobaqaning rasmiy start raqamisiz yugursa yoki raqamini kiyim ostiga yashirsa;
– boshqa shaxs nomiga ro‘yxatlangan raqam bilan qatnashsa;
– trassani qisqartirsa;
– ro‘yxatdan o‘tmagan masofani bosib o‘tsa;
– velosiped, samokat yoki boshqa mexanik harakatlanish vositasidan foydalansa;
– ushbu Nizom qoidalarini buzsa.

19.3. Ishtirokchilarga ruxsatsiz siyosiy, ijtimoiy va boshqa mitinglar, provokatsion chaqiriqlar, siyosiy tashviqot, norozilik aksiyalari va namoyishlar o‘tkazish hamda siyosiy yoki ijtimoiy yo‘nalishga aloqador har qanday atribut va logotiplardan foydalanish taqiqlanadi.

20. MUSOBAQADA HAKAMLIK QILISH

20.1. Hakamlik World Athletics Competition and Technical Rules hamda World Athletics Label Road Racesning tegishli amaldagi qoidalariga muvofiq olib boriladi.

Hakamlar hay’ati xalqaro qoidalarga rioya etilishini, trassadan to‘g‘ri o‘tilishini, natijalarning qayd qilinishi va tasdiqlanishini, protestlarning ko‘rib chiqilishini hamda barcha sportchilar uchun teng sharoitni ta’minlaydi.

20.2. Hakamlar hay’ati tarkibi, vazifalar taqsimoti va hakamlik tartibi Tashkiliy qo‘mita tomonidan World Athletics talablari va O‘zbekiston yengil atletika federatsiyasi bilan hamkorlikda belgilanadi.

20.3. Barcha rasmiy natijalar World Athletics qoidalarida belgilangan tartibda tasdiqlanishi kerak.

21. MUSOBAQA HAKAMLAR HAY’ATI

21.1. Hakamlar hay’ati Musobaqa qoidalariga rioya etilishini, halol raqobatni va g‘oliblarning xolis aniqlanishini nazorat qiladi.

21.2. Hakamlar hay’ati tarkibi:
– bosh hakam;
– texnik menejer;
– vaqt o‘lchash tizimi bo‘yicha katta hakam;
– start va marra hududi hakamlari;
– trassa hakamlari;
– Elita sportchilarining shaxsiy ovqatlanish punktlari hakamlari;
– ishtirokchilarni identifikatsiya qilish va taqdirlash xizmati hakamlari.

22. FORS-MAJOR HOLATLAR

22.1. Tashkilotchi nazoratidan tashqarida bo‘lgan, oqilona ravishda oldindan bilish, oldini olish yoki bartaraf etish mumkin bo‘lmagan favqulodda, kutilmagan va muqarrar holatlar sababli Tadbir bekor qilinishi yoki o‘zgartirilishi mumkin.

Bunday holatlarga jumladan quyidagilar kiradi:

– tabiiy ofatlar (zilzila, suv toshqini, dovul);
– shamol shiddatining 15 m/s va undan yuqori bo‘lishi;
– havo haroratining –25°C yoki undan past, yoxud +30°C yoki undan yuqori bo‘lishi;
– 12 soat yoki undan kam vaqt ichida 20 mm va undan ko‘p yog‘ingarchilik;
– chang bo‘roni;
– O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi favqulodda deb e’tirof etgan yoki ehtimoli haqida ogohlantirgan holatlar;
– yong‘in;
– ommaviy kasallanish (epidemiya);
– ish tashlashlar;
– harbiy harakatlar;
– terrorchilik harakatlari;
– qo‘poruvchilik;
– transport cheklovlari;
– davlatlar tomonidan qo‘yilgan taqiqlar;
– xalqaro sanksiyalar tufayli ayrim davlatlar bilan savdoni ham qamrab oluvchi savdo operatsiyalarini taqiqlash;
– davlat va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari organlarining hujjatlari, harakatlari yoki harakatsizligi;
– Tashkilotchining irodasiga bog‘liq bo‘lmagan boshqa holatlar.

22.2. Yuqoridagi holatlar yuzaga kelsa yoki xavfi paydo bo‘lib, Tadbir bekor qilinsa yoxud o‘zgartirilsa, ishtirokchilar ro‘yxatdan o‘tishda ko‘rsatgan telefon raqamiga SMS yoki elektron manziliga xat orqali xabardor qilinadi.

23. PROTEST VA APELLYATSIYALAR

23.1. Har bir ishtirokchi e’lon qilingan dastlabki natijalar bayonnomasidagi natija yuzasidan protest yoki apellyatsiya berishi mumkin.

23.2. Protest va apellyatsiya berish tartibi hamda muddatlari:

23.2.1. Protest Tadbir davomida bahsli dastlabki natija e’lon qilingach darhol Musobaqa bosh hakamiga og‘zaki bildiriladi.

23.2.2. Yozma apellyatsiya 2027-yil 17-noyabrgacha (shu kun ham kiradi) marathon@acdf.uz elektron manziliga yuborilishi kerak.

23.2.3. Protest yoki apellyatsiyada ishtirokchining familiyasi va ismi, start raqami, masofasi, murojaat mazmuni va xatoni tuzatishga yordam beradigan dalillar ko‘rsatilishi lozim.

23.2.4. Protest va apellyatsiyalar faqat ishtirokchi yoki uning rasmiy vakilidan qabul qilinadi.

23.2.5. Apellyatsiya 5 (besh) ish kuni ichida ko‘rib chiqiladi.

23.2.6. Elite klasteridan start oluvchi ishtirokchilarning protest va apellyatsiyalari World Athletics 8 (146)-qoidasiga muvofiq beriladi:

– sportchi yoki vakili bahsli natija e’lon qilinishi bilanoq og‘zaki protest bildiradi;

– yozma apellyatsiya tegishli natija rasman e’lon qilinganidan keyin 30 daqiqadan kechiktirmay beriladi.

24. YAKUNIY QOIDALAR

24.1. Ushbu Nizom Musobaqada ishtirok etish uchun rasmiy taklif hisoblanadi.

24.2. Tashkiliy qo‘mita baxtsiz hodisa, shaxsiy buyumlarning yo‘qolishi yoki mulkka zarar yetishi natijasida ishtirokchilarga yetkazilgan zarar uchun javobgar emas.

24.3. Tashkiliy qo‘mita ishtirokchilarning salomatligi, tayyorgarlik yoki Musobaqa davrida yuzaga kelgan jarohatlar, kasalliklar va boshqa tibbiy muammolar uchun javobgar emas. Har bir ishtirokchi o‘z salomatligi va jismoniy holati uchun to‘liq javobgar bo‘ladi hamda zarur bo‘lsa Musobaqadan oldin tibbiy ko‘rikdan o‘tishni zimmasiga oladi.

24.4. Nizomda nazarda tutilmagan masalalar Tashkilotchi tomonidan respublika, hududiy va mahalliy normativ-huquqiy hujjatlar hisobga olingan holda yakka tartibda ko‘rib chiqiladi.

24.5. Tashkilotchi ushbu Nizomga o‘zgartirish kiritish huquqini o‘zida saqlab qoladi.